

## SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TIL O'RGANISH PLATFORMALARINING SAMARADORLIGI

**Qobiljonova Muslima Akmal qizi**  
O'zDJTU sharq filologiyasi 3-bosqich talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan til o'rganish platformalarining samaradorligi keng qamrovda ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar yordamida ta'lim jarayonini individuallashtirish, foydalanuvchining bilim darajasini aniqlash, real vaqt rejimida teskari aloqa berish va o'quv jarayonini optimallashtirish imkoniyatlari asoslab beriladi. Shuningdek, AI tizimlari yordamida o'rganish tezligi, motivatsiya darajasi hamda bilimni mustahkamlash samaradorligi ortishi ilmiy tadqiqotlarga tayangan holda yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** sun'iy intellekt, til o'rganish, AI platformalar, shaxsiylashtirilgan ta'lim, gamifikatsiya, raqamli ta'lim

**Аннотация.** В статье анализируется эффективность платформ изучения языков на основе искусственного интеллекта, включая персонализацию обучения, обратную связь и повышение качества усвоения знаний.

**Ключевые слова:** искусственный интеллект, изучение языков, персонализация, обучение, геймификация

**Abstract.** This article analyzes the effectiveness of AI-based language learning platforms, focusing on personalization, feedback, and improved learning outcomes.

**Keywords:** artificial intelligence, language learning, personalization, education, gamification

**Kirish.** So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimiga o'zining sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, xorijiy tillarni o'rganish jarayonida AI asosidagi platformalar yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. An'anaviy ta'lim tizimida o'qituvchi asosiy bilim manbai bo'lib kelgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar o'quvchini faol ishtirokchiga aylantirdi. Sun'iy intellekt tizimlari foydalanuvchining bilim darajasi, o'rganish tezligi va xatolarini tahlil qilib, individual ta'lim yo'lini shakllantirmoqda va juda ko'p qulayliklarni keltirib chiqarmoqda. Masalan har bir foydalanuvchiga moslashtirilgan o'quv jarayonini tashkil etish imkonini beradi. Shuningdek, real vaqt rejimida beriladigan teskari aloqa o'quvchining xatolarini tezda tuzatishga yordam beradi va bilimni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bugungi kunda dunyo bo'ylab global miqyosda til o'rganishga bo'lgan ehtiyoj ortib borayotganligi sababli, sun'iy intellekt asosidagi platformalarning ahamiyati yanada oshmoqda. Shu bois mazkur maqolada AI texnologiyalarining til o'rganishdagi samaradorligi chuqur tahlil qilinadi.

**Asosiy qism.** Til o'rganish murakkab psixolingvistik jarayon bo'lib, u doimiy mashq, takrorlash va muloqotni talab qiladi. Krashen nazariyasiga ko'ra, o'quvchi o'z darajasiga mos, tushunarli bo'lgan material orqali samarali bilim oladi. Sun'iy intellekt asosidagi platformalar aynan shu nazariy asosga tayanib ishlaydi. Ular foydalanuvchining bilim darajasini aniqlaydi va mos materiallarni taklif qiladi va uning asosiy qulayliklaridan biri ham shunda. Bundan tashqari, mashinaviy o'rganish algoritmlari foydalanuvchi xatolarini tahlil qilib, individual mashqlar ishlab chiqadi. Bu

esa o'rganish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi. Real vaqt rejimida beriladigan feedback o'quvchining bilimni mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Har bir xato darhol ko'rsatiladi va to'g'ri variant taklif etiladi. Shuningdek, gamifikatsiya elementlari, ya'ni ballar, darajalar va mukofotlar tizimi foydalanuvchining motivatsiyasini oshiradi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, AI platformalar orqali o'rganish samaradorligi an'anaviy usullarga nisbatan yuqori bo'ladi. Biroq, sun'iy intellekt platformalari jonli darslar va jonli muloqotlarning o'rnini to'liq egallay olmaydi chunki AI va shunga o'xshash boshqa platformalar hozir olimlar tomonidan mukammalshtirish jarayonida bo'lganligi sababli ham bunday platformalar qisman samarali yordam berishi mumkin, to'liq emas. Shuning uchun ham ushbu texnologiyalar jonli muloqotni to'liq almashtira olmaydi. Shunday ekan AI va an'anaviy ta'limni birlashtirish hozirgi davrda eng optimal yechimlardan biri hisoblanadi. Biz bo'lajak yosh filologlar kelajakda o'z metodlarimizni shu tartibda ya'ni AI va an'anaviy ta'lim usullarini birlashtirgan holda qo'llanmalar, metodlar tuzadigan bo'lsak bu nafaqt bizning kelajak avlod yoshlariga ham katta yutuq va foydalar olib keladi degan umiddaman.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt asosidagi til o'rganish platformalari zamonaviy ta'lim tizimining muhim qismiga aylanib bormoqda. Ular shaxsiylashtirilgan ta'limni ta'minlash, tezkor teskari aloqa berish va motivatsiyani oshirish orqali yuqori samaradorlikka erishishga yordam beradi. AI texnologiyalari foydalanuvchining bilim darajasini aniqlab, unga mos o'quv materiallarini taqdim etadi, bu esa o'rganish jarayonini sezilarli darajada samarali qiladi. Shu bilan birga, bu platformalar mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi va foydalanuvchining o'z ustida ishlashiga yordam beradi. Biroq, inson omili, ya'ni jonli muloqot va madaniy kontekstni o'rganish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Shu sababli sun'iy intellekt texnologiyalarini an'anaviy ta'lim bilan uyg'unlashtirish eng maqbul yondashuv hisoblanadi. Kelajakda AI texnologiyalari yanada rivojlanib, ta'lim sifatini oshirishda muhim rol o'ynashi kutilmoqda. Shu sababli ham biz yoshlar bor imkoniyatlarimizdan foydalanilgan holda bilim olish va izlanishdan to'htamasligimiz lozim. Zamon bilan ham nafas bo'lgan holda jadal rivojlanib borayotgan texnologiyalardan habardor bo'lishimiz va ulardan faol ravishda foydalanmog'imiz darkor.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Chen, X., Zou, D., Xie, H., & Wang, F. L. (2020). Smart learning analysis.
2. Godwin-Jones, R. (2018). Language Learning & Technology.
3. Krashen, S. D. (1982). Principles and practice in second language acquisition.
4. Luckin, R., Holmes, W., Griffiths, M., & Forcier, L. B. (2016). Intelligence unleashed.
5. Mayer, R. E. (2009). Multimedia learning.
6. Mitchell, T. M. (1997). Machine learning.